

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MATEMATIKA INSTITUTI**

**MIZOMOV INOMJON ERKIN O'G'LI**

**ELLIPTIK ALGEBRALARNING KALABI-YAU XOSSALARI HAQIDA**

**01.01.06 – Algebra**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT - 2025 – yil**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
physical-mathematical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

<b>Mizomov Inomjon Erkin o'g'li</b> Elliptik algebralarning Kalabi-Yau xossalari haqida . . . . .	3
<b>Mizomov Inomjon Erkin o'g'li</b> On Calabi-Yau properties of elliptic algebras . . . . .	19
<b>Мизомов Иномжон Эркин угли</b> О свойствах Калаби-Яу для эллиптических алгебр. . . . .	35
<b>E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati</b> List of published works Список опубликованных работ. . . . .	39

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MATEMATIKA INSTITUTI**

**MIZOMOV INOMJON ERKIN O'G'LI**

**ELLIPTIK ALGEBRALARNING KALABI-YAU XOSSALARI HAQIDA**

**01.01.06 – Algebra**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT - 2025 yil**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.4.PhD/FM960 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://kengash.mathinst.uz>) va "ZiyoNet" ta'lim axborot tarmog'ida (<http://www.ziynet.uz>) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Eshmatov Farxod Xasanovich**

fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Omirov Baxrom Abdazovich**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Jumaniyozov Doston Erkaboy o'g'li**

fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « 25 » noyabr kuni soat 17:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40, e-mail: [uzbmath@umail.uz](mailto:uzbmath@umail.uz), Website: [www.mathinst.uz](http://www.mathinst.uz)).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (214-raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 10 » noyabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil « 10 » noyabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

**U.A. Rozikov**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi,

f.-m.f.d., akademik

**J.K. Adashev**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash ilmiy kotibi,

f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

**B.A. Omirov**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash huzuridagi

Ilmiy seminar raisi,

f.-m.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda statistik fizika va nokommutativ geometriyani tadqiq qilish kabi masalalariga keltiriladi. Koshul Kalabi-Yau algebralari zamonaviy matematikaning bir necha sohalarida, jumladan, nokommutativ geometriya, tasvirlar nazariyasi, algebraik topologiya va matematik fizika kabi yo‘nalishlarda tabiiy ravishda uchraydigan graduirlangan algebralarning muhim sinfini tashkil etadi. Ushbu algebralalar klassik Kalabi-Yau ko‘pxilliklari nokommutativ muhitga umumlashtiradi hamda algebraik geometriyadagi Serre qo‘shmaligiga o‘xshash tarzda Hochschild (ko)gomologiyasidagi qo‘shmalik xossasini saqlab qoladi. Ushbu ishda biz ayniqsa Kalabi-Yau algebralarning elliptik algebralari deb nomlanuvchi kichik sinfiga e‘tibor qaratamiz, ular elliptik egri chiziqlar bilan bog‘liq bo‘lgan proyektiv sirtlarning nokommutativ analoglaridir. Bu algebralalar nafaqat boy algebraik strukturalarga ega, balki integrallanuvchi sistemalar, kvant algebralari va kvant Yang-Bakster tenglamasini tadqiq etishda ham muhim o‘rin tutadi. Kalabi-Yau geometriyasini ham kommutativ hamda nokommutativ shakllarda o‘rganishning asosiy ilmiy motivatsiyalaridan biri uning ko‘zgu simmetriya nazariyasidagi muhim ahamiyatidir.

Hozirgi kunda elliptik algebralarning Kalabi-Yau xossasini tadqiq etish hamda kvadratik algebralarning Koshul ma‘nosidagi qo‘shma algebralarda kvant Yang-Bakster tenglamasi yechimlarini aniqlash orqali ularning Kalabi-Yau xossasiga ega ekanligini ko‘rsatish dolzarb masalalardan biridir. Oxirgi yigirma yil davomida elliptik algebralari nazariyasi jadal rivojlangan bo‘lsa-da,  $n$ -o‘lchamli elliptik algebralarning Kalabi-Yau xossasiga egaligi masalasi hali ham yetarli darajada o‘rganilmagan. R. Boklandt, T. Shedler va M. Vemisslarning natijalari orqali barcha Koshul Kalabi-Yau algebralarning superpotensialdan hosil qilinishi isbotlangan bo‘lsa-da, superpotensialni Koshul ma‘nosidagi qo‘shma koalgebra orqali hisoblash maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy ahamiyatga ega yo‘nalishlari bo‘lgan matematika, fizika, geologiya hamda biologiya sohalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, assotsiativ va noassotsiativ algebralarga oid fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish masalasiga katta ahamiyat berilgan. Ushbu fundamental izlanishlar doirasida elliptik algebralari va ularning xossalarini o‘rganishda muhim ilmiy natijalarga erishilgan. “Algebra va funksional analiz”ning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalaridan biri hamda uning faoliyat yo‘nalishi sifatida belgilandi<sup>1</sup>. Mazkur vazifani amalga oshirishda, tegishli ilmiy sohalarida olingan natijalarning qo‘llanishini ta‘minlash maqsadida Kalabi-Yau algebralari tavsiflash muhim ilmiy masala hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqotlar muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** So‘nggi yigirma yil davomida Kalabi-Yau algebralari nazariyasi jadal sur‘atlar bilan rivojlandi. V. Ginzburg tomonidan potensialga ega yo‘naltirilgan graflardan 3 – Kalabi-Yau differensial gradiurlangan algebralari qurilishi hamda R. Boklandt tomonidan graduirlanlangan 3 – Kalabi-Yau algebralar uchun klassifikatsiya teoremasining isbotlanishi mazkur yo‘nalishda muhim nazariy asosni shakllantirdi. M. Artin, J. Teyt va M. Van den Berglarning ishi 3 – o‘lchamli Artin-Shelter regulyar algebralarini tasniflashga bag‘ishlangan bo‘lib, ular muayyan tasniflash tizimini beradi. M. Van den Berg tomonidan isbotlangan asosiy strukturaviy teorema shuni ko‘rsatadiki, Koshul algebra Kalabi-Yau algebra bo‘lishi uchun uning Koshul ma‘nosidagi qo‘shma algebrasining simmetrik Frobenius algebra bo‘lishi zarur va yetarli. Ushbu muvofiqlik nafaqat Kalabi-Yau shartini tekshirish uchun amaliy mezon bo‘lib xizmat qiladi, balki nokommutativ qo‘shmalikni klassik Frobenius juftliklari bilan bog‘lab, deformatsiya nazariyasi va hosil qilingan ekvivalentliklarni o‘rganishda yo‘naltiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

1989-yilda B.L. Feigen va A.V. Odesskiy  $Q_{n,k}(\mathcal{E}, \tau)$  elliptik algebrani ta’riflab berdilar. Elliptik algebralar ilk bor ularning ilmiy ishlarlarida paydo bo‘lgan.  $Q_{n,1}(\mathcal{E}, \tau)$  algebralar haqida esa hozirga qadar anchagina ma’lumotlar to‘plangan. Ushbu algebralar  $n$  o‘zgaruvchili ko‘phadlar halqasi bilan bir xil Gilbert qatori hamda gomologik xossalari ega b‘lgan Nyoter sohasi ekanligini J. Tate va M. Van den Berglar tomonidan ko‘rsatilgan. Sklyanin algebralari M. Artin, J. Tate, M. Van den Berg, S.P. Smit va J.T. Staffordlarning tadqiqotlarida yetarlicha o‘rganilgan. Shuningdek, A. Chirvasitu, R. Kanda va S.P. Smit  $Q_{n,k}(\mathcal{E}, \tau)$  ning Koshul algebrasi

hamda o'lchami  $n$  bo'lgan Artin-Shelter regulyar algebrasi ekanligini ko'rsatishgan.

Mazkur strukturaviy yutuqlar bilan bir qatorda, hosil qilingan noassotsiativ Puasson nuqtayi nazari ham shakllanib, u Kalabi-Yau algebralarini tasvir nazariyasi va topologik invariantlar bilan bog'lovchi yondashuvni taqdim etmoqda. Y. Berest, X. Chen, F. Eshmatov va A. Ramadoslar noassotsiativ Puasson strukturalarini differensial-graduirlangan algebralarda ishlab chiqib, ular hosil qiladigan (siljigan) Puasson ko'paytmalar hosil qilingan tasvir sxemalarida namoyon bo'lishini isbotladilar. Kalabi-Yau algebralari uchun esa mazkur ko'paytmalar Hochschild/siklik (ko)gomologiya hamda shoda Li algebralari bilan uzviy bog'lanadi. Koshul Kalabi-Yau shartida, X. Chen, A. Eshmatov, F. Eshmatov va S. Yanglar Koshul qo'shmalikka mos keluvchi va hosil qilingan Morita ekvivalentliklari ostida funktorial bo'lgan hosil qilingan noassotsiativ Puasson ko'paytmasini qurdilar. Ushbu yondashuv kvadratik holda Kalabi-Yau xossasini aniqlash uchun maxsus moslashtirilgan gomologik vositalarni taqdim etadi. Kvantizatsiya nuqtayi nazaridan X. Chen, F. Eshmatov va W.L. Gan tor topologiyasining Li bialgebrasi (erkin sirtmoq fazolarining ekvivalent gomologiyasidagi Chas-Sullivan strukturasini)ni kvantlashtirdilar. Ular Li bialgebra turidagi tuzilmalar uchun deformatsiya-kvantizatsiya modelini taklif etdilar. Ushbu yondashuv Kalabi-Yau algebralardan kelib chiquvchi noassotsiativ Puasson ko'paytmalarini kvantlashtirish bilan mazmunan mos keladi.

Mazkur rivojlanishlar shuni ko'rsatadiki, elliptik algebralar allaqachon Kalabi-Yau turidagi obyektlardan kutiladigan ko'plab gomologik regulyar xossalariga ega. Ushbu dissertatsiyada hal qilinadigan markaziy masala shundan iboratki, Van den Berg qo'shmaligi bilan yuqorida keltirilgan hosil qilingan noassotsiativ Puasson va kvantizatsiya texnikalarini birlashtirish hamda batafsil Hochschild/Ext hisob-kitoblarini amalga oshirish orqali, Feigen-Odesskiy algebralari uchun qaysi parametr rejimlari Kalabi-Yau xossasini ta'minlaydiganini aniq belgilashdan iborat.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tekshirish instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** elliptik algebralarning Kalabi-Yau xossalarini tadqiq qilishdan iborat bo'lib, bunda Sklyanin algebralari va ularning umumlashmalari kabi aniq misollarga e'tibor qaratish, shuningdek, Koshul algebralarning Kalabi-Yau algebra bo'lishi uchun zarur va yetarli shartlarni aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Van den Berghning natijasidan foydalanib, kvadratik Koshul algebralarining Kalabi-Yau xossasini o'rganish;

Uch va to'rt o'lchamli Sklyanin algebralari va ba'zi Koshul algebralarining Kalabi-Yau xossasiga ega ekanligini isbotlash;

to'rtinchi va beshinchi tartibli elliptik zeta funksiyalar orasidagi ayniyatlarni topish;

to'rt o'lchamli Sklyanin va elliptik algebralar o'rtasida izomorfizm qurish;

besh o'ldamli elliptik algebralar uchun superpotensialni topish.

**Tadqiqot ob'ekti:** Kvadratik va Koshul algebra, elliptik zeta funksiyalar, elliptik algebralar.

**Tadqiqot predmeti.** Koshul algebralar nazariyasi, kvadratik algebralar nazariyasi, elliptik algebralar nazariyasi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada assosiativ algebralar metodlari, induksiya metodi, shuningdek Koshul algebra usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Koshul algebralarining Kalabi-Yau xossasiga ega bo'lishi uchun zarur bo'lgan kriteriya aniqlangan;

to'rtinchi va beshinchi tartibli elliptik zeta funksiyalar orasida ayniyatlar topilgan;

to'rt o'ldamli elliptik va Sklyanin algebralari orasida izomorfizm oshkor ko'rinishda qurilgan;

to'rt o'ldamli elliptik algebralar uchun superpotensial topilgan;

besh o'ldamli elliptik algebralar uchun superpotensial  $\tau \in \mathcal{E}$  ning ba'zi qiymatlari uchun topilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Olingan natijalar va dissertatsiyada qo'llanilgan usullar oliy o'quv yurtlarida magistratura talabalari, tayanch doktorantlar uchun o'quv kurs sifatida o'qitilishi mumkin. Shuningdek, dissertatsiya natijalari, Koshul algebralarining Kalabi-Yau xossasiga oid bo'limlari,  $n$  - o'ldamli elliptik algebralarining Kalabi-Yau xossasiga ega ekanligi haqidagi gipotezalarni tekshirish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Mazkur tadqiqot natijalari invariantlar nazariyasi hamda algebralar nazariyasining asosiy qoidalaridan foydalanilgan holda olindi. Olingan natijalar isbotlari matematik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. To'rt va besh o'ldamli elliptik algebralar uchun topilgan superpotensiallar va ularning xususiy hosilalari Mathematica 12 dasturining standart buyruqlari hamda NCAgebra paketi yordamida tekshirish mumkin. Shuningdek, to'rtinchi va beshinchi tartibli elliptik zeta funksiyalari orasida topilgan ayniyatlar ham Mathematica 12 dasturining standart buyruqlari orqali tekshirish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning sof va amaliy matematikadagi qo'llanishi bilan belgilanadi. Sof algebra doirasida u nokommutativ sirtlar va ularning modullarini o'rganishga hissa qo'shadi. Matematik fizika sohasida esa mazkur algebralar kvant simmetriyalarning modellarini yaratadi hamda integrallanuvchi sistemalarda uchraydigan algebraik strukturalar asosini tashkil etadi. Tadqiqotda qo'llanilgan usullar-gomologik algebra, nokommutativ proyektiv geometriya va invariantlar nazariyasi mustaqil ilmiy qiziqish uyg'otuvchi bo'lib, keng qo'llanish imkoniyatiga ega. Dissertatsiyada olingan natijalar va foydalanilgan metodlar oliy ta'lim muassasalarining magistratura va doktorantura bosqichlari uchun maxsus kurs sifatida o'qitilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Elliptik algebralarining Kalabi-Yau xossalari bo'yicha olingan natijalar asosida:

to‘rt va besh o‘lchamli elliptik algebra uchun topilgan superpotensiallardan NSFC12271377 raqamli “Nokommutativ algebraik geometriya va hosil qilingan algebraik geometriyaning ayrim masalalari” mavzusidagi xorijiy loyihada kompakt golomorf Puasson ko‘pxillarida golomorf Koshul–Brilinski gomologiyalari uchun kengaytirish formulasini hosil qilishda foydalanilgan (Sichuan universitetining 2025 yil 5-sentyabrdagi ma‘lumotnomasi, Xitoy Xalq Respublikasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi holomorfik Puasson tuzilmalarga ega Pezzo sirtlari hamda ikki xil kompleks nilko‘pxilligi uchun golomorfik Koshul–Brilinski gomologiyalarini hisoblash imkonini bergan;

Koshul algebra larning Kalabi-Yau xossasiga ega bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan kiriteriyadagi kvadratik algebra larning Koshul ma‘nosidagi qo‘shma algebra lari uchun kvant Yang–Bakster tenglamasining yechimlaridan F-FA-2021-423 raqamli “Operator algebra larning avtomorfizmlari, cheksiz o‘lchamli noassosiativ algebra lar va superalgebra larning klassifikatsiyasi” mavzusidagi fundamental loyihada Li algebra larning Rota-Bakster operatorlarini aniqlashda foydalanilgan (Matematika institutining 2025 yil 2-sentyabrdagi №2/337-sonli ma‘lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi kichik o‘lchamli Li algebra larning Rota-Bakster va anti-Rota-Bakster operatorlarini tasniflash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 2 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, to‘qqizta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 73 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob‘ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Dastlabki ma‘lumotlar va natijalar**” deb nomlanuvchi birinchi bobida dissertatsiya mavzusini to‘la yoritish uchun zarur bo‘lgan asosiy ta‘riflar va muhim tushunchalar keltirilgan. Dastlab, assosiativ algebra, kvadratik algebra, koassosiativ koalgebra va kvadratik, assosiativ algebra larning Koshul ma‘nosidagi qo‘shma algebra va koalgebra tushunchalari eslatib o‘tilgan. Keyin,

ushbu dissertatsiyada muhim ahamiyat kasb etuvchi Koshul va Kalabi–Yau algebralari ko‘rib chiqiladi. Ushbu bobning oxirgi paragrafi kvant Yang-Bakster tenglamasi haqidagi asosiy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Aytaylik,  $\mathbb{K}$  biror maydon bo‘lsin.  $\mathbb{K}$  maydon ustidagi chiziqli fazolar ( $A$  algebra ustidagi modullarga o‘xshash tarzda) va  $\mathbb{K}$  –chiziqli akslantirishlar ketma-ketligi

$$(V, d) = \cdots \rightarrow V_{n+1} \xrightarrow{d_{n+1}} V_n \xrightarrow{d_n} V_{n-1} \rightarrow \cdots, \quad n \in \mathbb{Z}$$

har bir  $n \in \mathbb{Z}$  uchun  $d_n \circ d_{n+1} = 0$  bo‘lsa, u holda  $(V, d)$  ga (zanjir) kompleks deyiladi.  $(V, d)$  kompleksning  $n$  – gomologiyasi

$$H_n(V, d) = \ker d_n / \text{Im } d_{n+1}$$

nol bo‘lsa, unga *aniq* yoki *siklsiz* deyiladi.

Aytaylik,  $V$   $\mathbb{K}$  ustidagi chekli o‘lchamli chiziqli fazo bo‘lsin.

**1-ta’rif.** Agar  $V$  chiziqli fazo orqali hosil qilingan

$$T(V) := \mathbb{K} \oplus V \oplus (V \otimes V) \cdots \oplus V^{\otimes n} \oplus \cdots$$

tenzor modulda  $T(V) \otimes T(V) \rightarrow T(V)$  ko‘paytirishni

$$v_1 \cdots v_p \otimes v_{p+1} \cdots v_{p+q} \mapsto v_1 \cdots v_p v_{p+1} \cdots v_{p+q}$$

kabi aniqlasak, unga  $V$  ustidagi *tenzor algebra* deyiladi.

Bu amal assosiativ amal va birlik element sifatida 1 olinadi.

**2-ta’rif.**  $V$  chekli o‘lchamli chiziqli fazoning tenzor algebrasini  $R \subset V \otimes V$  qism fazo orqali hosil qilingan ikki tomonlama ideali bo‘yicha faktor algebrasiga *kvadratik algebra* deyiladi va  $A(V, R) = T(V) / (R)$  kabi belgilanadi.

**3-ta’rif.**  $A = A(V, R)$  kvadratik algebraning *Koshul ma’nosidagi qo‘shma algebrasi* deb,  $A^1 = T(V^*) / (R^\perp)$  algebra ga aytiladi, bu yerda

$$R^\perp = \{r \in V^* \otimes V^* \simeq (V \otimes V)^* \mid r(R) = 0\}.$$

**4-ta’rif.**  $A = A(V, R)$  kvadratik algebraning *Koshul ma’nosidagi qo‘shma koalgebrasi* deb, quyidagi koalgebra ga aytiladi.

$$A^i = \mathbb{K} \oplus sV \oplus s^2R \oplus \cdots \oplus \left( \bigcap_{i+2+j=n} sV^{\otimes i} \otimes s^2R \otimes sV^{\otimes j} \right) \oplus \cdots,$$

bu yerda  $s^2R$  fazo  $R$  ning  $V^{\otimes 2} \rightarrow (sV)^{\otimes 2}, vw \mapsto svsw$  akslantirishning obrazi.

$V$  vektor fazoning  $\{e_i\}$  bazisini olaylik va uning  $V^*$  dagi qo‘shma bazisi  $\{e_i^*\}$  bo‘lsin hamda  $V^*$  ning graduirovkasini birga pasaytirishni  $s^{-1}V^*$  orqali belgilaylik. U holda  $A$  kvadratik algebra orqali tuzilgan

$$\cdots \xrightarrow{\delta} A \otimes A_{i+1}^i \xrightarrow{\delta} A \otimes A_i^i \xrightarrow{\delta} \cdots A \otimes A_0^i \xrightarrow{\delta} \mathbb{K}, \quad (1)$$

kompleksga *Koshul kompleksi* deyiladi. Bu yerda  $r \otimes f \in A \otimes A^i$ ,

$$\delta(r \otimes f) = \sum_i e_i r \otimes s^{-1} e_i^* f.$$

**5-ta’rif.** Agar (1) Koshul kompleks aniq bo‘lsa, u holda  $A = TV / (R)$  kvadratik algebra ga *Koshul* deyiladi.

**6-ta’rif.** Agar ixtiyoriy  $M \rightarrow N$   $A$  – modul epimorfizm uchun

$$\text{Hom}(P, M) \rightarrow \text{Hom}(P, N)$$

morfizm syuryektiv bo'lsa,  $P \in A - \text{Mod}$  modulga *proyektiv modul* deyiladi.  $M \in A - \text{Mod}$  ning *proyektiv rezolyutsiyasi* deb quyidagi aniq ketma-ketlikka aytiladi.

$$P := \cdots \rightarrow P_n \rightarrow P_{n-1} \rightarrow \cdots \rightarrow P_1 \rightarrow P_0 \rightarrow M \rightarrow 0.$$

bu yerda har bir  $i$  uchun  $P_i$  – proyektiv  $A$  – modul.

$P_M := \cdots \rightarrow P_2 \xrightarrow{d_2} P_1 \xrightarrow{d_1} P_0 \rightarrow 0$  ketma-ketlik  $M \in A - \text{Mod}$  ning kesilgan proyektiv rezolyutsiyasi bo'lsin. Unga  $\text{Hom}_A(-, N)$  funktorni ta'sir qildirsak, quyidagi kompleksga ega bo'lamiz:

$$\text{Hom}_A(P_M, N) = 0 \rightarrow \text{Hom}_A(P_0, N) \xrightarrow{d_1^*} \text{Hom}_A(P_1, N) \rightarrow \cdots$$

$\text{Hom}_A(P_M, N)$  ning  $n$  – kogomologiyasiga

$$\text{Ext}_A^n(M, N) := H^n(\text{Hom}_A(P_M, N)) = \ker d_{n+1}^* / \text{Im } d_n^*.$$

deyiladi. Bu yerda  $d^*(\varphi) = d \circ \varphi$ .

$A$  assosiativ algebra bo'lsin. U holda  $A \otimes A$  fazo ikkita *tashqi* va *ichki* deb nomlangan  $A$  – bimodul strukturaga ega. Ular mos ravishda quyidagicha beriladi:

$$a(b_1 \otimes b_2)c = ab_1 \otimes b_2c, \quad a(b_1 \otimes b_2)c = b_1c \otimes ab_2.$$

Aytaylik,  $A$  bimodullar kategoriyasi  $A - \text{Bimod}$  bo'lsin. U holda,  $A \otimes A$  ni tashqi bimodul struktura deb qarab, qo'shma funksiyani

$$\text{Hom}_{A-\text{Bimod}}(-, A \otimes A) : A - \text{Bimod} \rightarrow A - \text{Bimod}, \quad M \mapsto \text{Hom}_{A-\text{Bimod}}(M, A \otimes A).$$

kabi aniqlaymiz.

$\text{Hom}_{A-\text{Bimod}}(M, A \otimes A)$  ustidagi bimodul struktura  $A \otimes A$  ustidagi ichki bimodul struktura orqali olinadi.

**7-ta'rif.** Agar  $A$  algebra quyidagi ikki shartni qanoatlantirsa unga  $d$  – *Kalabi-Yau* algebra deyiladi. Birinchidan,  $A$  gomologik silliq, ya'ni  $A$  chekli uzunlikdagi chekli hosil qilingan  $A^e$  – bimodullarning proyektiv rezolyutsiyasi ega. Ikkinchidan,  $A$  – bimodullarning quyidagi izomorfizmi o'rinli.

$$\text{Ext}_{A-\text{Bimod}}^k(A, A \otimes A) \cong \begin{cases} A, & \text{if } k = d \\ 0, & \text{if } k \neq d \end{cases}.$$

Kalabi-Yau algebralarining katta sinfi *superpotensialdan* kelib chiqadi. Faraz qilaylik,  $\mathbb{C}\langle x_1, \dots, x_n \rangle$   $n$  ta hosil qiluvchilarning erkin algebrasi bo'lsin. U holda,  $\mathbb{C}\langle x_1, \dots, x_n \rangle$  monomlarning uzunligi  $|a|$  bo'yicha tabiiy graduirovkaga ega.  $a_i \in \{x_1, \dots, x_n\}$  bo'lsin,  $a = a_1 a_2 \dots a_m \in \mathbb{C}\langle x_1, \dots, x_n \rangle$  monom uchun,  $x_k$  ( $k = 1, \dots, n$ ) bo'yicha *nokommutativ xususiy hosilani* aniqlaymiz.

$$\partial_{x_k}(a) := \sum_{\{i \in [1, m] | a_i = x_k\}} a_{i+1} a_{i+2} \dots a_m a_1 \dots a_i.$$

Chiziqlilik xossasidan uni  $\partial_{x_k} : \mathbb{C}\langle x_1, \dots, x_n \rangle \rightarrow \mathbb{C}\langle x_1, \dots, x_n \rangle$  akslantirishga kengaytirish mumkin. Keyin, ushbu akslantirishlarning kompozitsiyasini olish orqali, yuqori tartibli hosilani aniqlaymiz. Boshqacha qilib aytganda,  $p = x_{i_1} \dots x_{i_s}$  monom uchun  $\partial_p := \partial_{x_{i_1}} \circ \dots \circ \partial_{x_{i_s}}$  deb belgilaymiz. Keyin,  $\omega \in \mathbb{C}\langle x_1, \dots, x_n \rangle$  uchun  $k$  – tartibli hosilaviy-faktor algebrani quyidagicha aniqlashimiz mumkin

$$\mathcal{D}(\omega, k) := \frac{\mathbb{C}\langle x_1, \dots, x_n \rangle}{(\partial_p \omega : |p| = k)}$$

bu yerda  $p$  uzunligi  $k$  bo'lgan  $\mathbb{C}\langle x_1, \dots, x_n \rangle$  ning barcha monomlari bo'yicha o'zgaradi.

Agar  $\omega \in \mathbb{C}\langle x_1, \dots, x_n \rangle$  quyidagi ko'rinishdagi elementlar yig'indisidan iborat bo'lsa, unga *superpotensial* deyiladi.

$$\sum_{i=1}^n (-1)^{(i-1)(n+1)} a_i a_{i+1} \dots a_n a_1 a_2 \dots a_{i-1}, \quad a_i \in \{x_1, \dots, x_n\} \quad (2)$$

Faraz qilaylik,  $A = \mathcal{D}(\omega, k)$  (2) ko'rinishdagi  $\omega$  superpotensialning hosilaviy-faktor algebra bo'lsin.  $A$  kvadratik algebra bo'lganligi uchun biz  $|\omega| = k + 2$  deb faraz qilamiz.

Quyidagi kompleksni qaraylik

$$\mathcal{V} = 0 \rightarrow A \otimes V_{|\omega|} \otimes A \xrightarrow{d_{|\omega|}} A \otimes V_{|\omega|-1} \otimes A \xrightarrow{d_{|\omega|-1}} \dots \xrightarrow{d_1} A \otimes V_0 \otimes A \rightarrow 0, \quad (3)$$

bu yerda,  $V_{n-k} := \langle \partial_p \omega : |p| = k \rangle$  va  $v_1, \dots, v_i \in V, a, a' \in A$  lar uchun

$$\begin{aligned} d_i &= \varepsilon_i (\text{split}_L + (-1)^i \text{split}_R) |_{A \otimes V_i \otimes A}, \\ \text{split}_L (a \otimes v_1 v_2 \dots v_i \otimes a') &= a v_1 \otimes v_2 \dots v_i \otimes a', \\ \text{split}_R (a \otimes v_1 v_2 \dots v_i \otimes a') &= a \otimes v_1 \dots v_{i-1} \otimes v_i a', \\ \varepsilon_i &:= \begin{cases} (-1)^{i(|\omega|-i)}, & \text{agar } i < \frac{|\omega|+1}{2}, \\ 1, & \text{aks holda.} \end{cases} \end{aligned}$$

Yuqoridagini kompleks hosil qilishini ya'ni  $d_i \circ d_{i+1} = 0$  ekanligini tekshirish oson. Bundan tashqari,  $A$  ning o'zidan tashqari barcha hadlar proyektiv bimodullar bo'lib, akslantirishlar  $A$  – bimodul akslantirishlardir.

1997-yilda R. Boklandt, T. Shedler va M. Vemisslar quyidagi teoremani isbotlagan.

**1-teorema.**  $T(V)/(R)$  algebra Koshul Kalabi-Yau algebra bo'lishi uchun uning  $\mathcal{D}(\omega, k)$  ko'rinishda bo'lishi hamda unga mos keluvchi (3) kompleks musbat darajalarda aniq bo'lishi va  $H^0(\mathcal{V}) = A$  bo'lishi zarur va yetarli.

Faraz qilaylik,  $V \subset \mathbb{C}$  – chiziqli fazo va  $R \in \text{End}(V \otimes V)$  bo'lsin. Agar  $R$

$$R^{12} \circ R^{13} \circ R^{23} = R^{23} \circ R^{13} \circ R^{12},$$

qanoatlantirsa, unga kvant Yang-Bakster tenglamasini yechimi deyiladi.

bu yerda  $R^{12} = R \otimes \text{id}, R^{23} = \text{id} \otimes R$ , va hokazolar  $V^{\otimes 3}$  ning endomorfizmlari. Agar  $R$

ni  $R = \sum_{i=1}^n a_i \otimes b_i \in A \otimes A$  kabi olsak, u holda ushbu yig'indi  $A \otimes A$  ga chapdan

ko'paytirish orqali ta'sir qiladi va  $R^{12} = \sum_{i=1}^n a_i \otimes b_i \otimes 1$  va hokazo. U holda kvant

Yang-Bakster tenglamasini quyidagicha yozishimiz mumkin.

$$R^{12} R^{13} R^{23} = R^{23} R^{13} R^{12}.$$

Dissertatsiyaning “Kalabi-Yau algebralari va kvant Yang-Bakster tenglamasi” deb nomlangan ikkinchi bobida Koshul Kalabi-Yau algebralarning yangi xarakterizatsiyasi o‘rganilgan va bir qancha Koshul algebralarning Kalabi-Yau xossasini qanoatlantirishi isbotlangan.

Faraz qilaylik,  $A$  chekli o‘lchamli  $\mathbb{K}$  – algebra bo‘lsin. Aning  $\mathbb{K}$  – chiziqli qo‘shmasi  $A^* = \text{Hom}_{\mathbb{K}}(A, \mathbb{K})$  quyidagi skalyar ko‘paytirish bilan chap  $A$  – modul bo‘ladi.

$$a.f(x) = f(xa), \quad a, x \in A, \quad f \in A^*.$$

**8-ta’rif.**  $A$  chekli o‘lchamli  $\mathbb{K}$  – algebra bo‘lsin. Agar chap  $A$  – modullar sifatida  $A \cong A^*$  bo‘lsa,  $A$  ga *Frobenius algebra* deyiladi.

Bu,  $\langle -, - \rangle: A \times A \rightarrow \mathbb{C}$  xosmas bichiziqli forma mavjud bo‘lib, barcha  $a, b, c \in A$  lar uchun  $\langle ab, c \rangle = \langle a, bc \rangle$  niq qanoatlantirishiga ekvivalent.

Quyidagi natija, Beydar, Fong va Stolinlar tomonidan olingan bo‘lib, Frobenius algebralarni kvant Yang-Bakster tenglamasining yechimlari yordamida tavsiflaydi.

**2-teorema.** Faraz qilaylik,  $Q = \sum_{i=1}^n e_i \otimes e^i$  bo‘lsin. U holda quyidagilar ekvivalent:

1.  $Q^{12}Q^{13} = Q^{23}Q^{12}$  va  $Q^{12}Q^{23} = Q^{23}Q^{13}$ ,
2.  $Q^{12}Q^{13} = Q^{13}Q^{23}$  va  $Q^{12}Q^{23} = Q^{13}Q^{12}$ ,
3.  $Q^{23}Q^{12} = Q^{13}Q^{23}$  va  $Q^{23}Q^{13} = Q^{13}Q^{12}$ ,
4. barcha  $a \in A$  uchun  $(a \otimes b)Q = Q(b \otimes a)$ ,
5. element  $Q$  kvant Yang-Bakster tenglamasining yechimi bo‘ladi va  $\tau_{A,A} \circ Q = Q$  bo‘ladi.

Bundan tashqari, M. Van den Bergning ishida muallif quyidagi teoremani isbotlagan.

**3-teorema.** Faraz qilaylik,  $A$  Koshul algebra bo‘lsin. U holda  $A$  ning  $d$  – Kalabi-Yau bo‘lishi uchun  $A^!$  ning graduirlangan simmetrik Frobenius algebra bo‘lishi zarur va yetarli.

Dissertatsiyaning 2.1-paragrafida isbotlangan quyidagi teorema 2-teoremaning graduirlangan holatidir.

**4-teorema.** Faraz qilaylik,  $A$  Koshul algebra bo‘lsin. U holda  $A$  algebraning Kalabi-Yau algebra bo‘lishi uchun uning Koshul ma’nosidagi qo‘shma algebra  $A^!$  da  $e_1, \dots, e_n$  va  $e^1, \dots, e^n$  bir jinsli bazislar mavjud bo‘lib,  $Q = \sum_{i=1}^n e_i \otimes e^i$  element quyidagi ekvivalent shartlarni qanoatlantirishi zarur va yetarli.

1. barcha  $a, b \in A^!$  lar uchun  $(a \otimes b)Q = (-1)^{|a||b| + (|a|+|b|)(|Q|+1)} Q(b \otimes a)$ ,
2.  $Q^{12} \left( (-1)^{|e_j|+|Q|} Q^{13} \right) = Q^{23}Q^{12}$  va  $Q^{12}Q^{23} = \left( (-1)^{|e_j|+|Q|} Q^{23} \right) Q^{13}$ .

**5-teorema.** Faraz qilaylik,  $A$   $\mathbb{K}$  – algebra va  $Q = e_i \otimes e^i \in A^! \otimes A^!$  bo‘lsin. Barcha  $a, b \in A^!$  lar uchun  $(a \otimes b)Q = (-1)^{|a||b| + (|a|+|b|)(|Q|+1)} Q(b \otimes a)$  bajarilsin. U holda quyidagilar o‘rinli:

1.  $Q^{12}Q^{13} = \left((-1)^{|e_j|+|Q|} Q^{23}\right) Q^{12}$  va  $Q^{12}Q^{23} = \left((-1)^{|e_j|+|Q|} Q^{13}\right) Q^{12}$ ,
2.  $Q^{12}Q^{13}Q^{23} = \left((-1)^{|e_j|} Q^{23}\right) \left((-1)^{|e_j|} Q^{13}\right) Q^{12}$ .

Aytaylik,  $a, b, c \in \mathbb{C}$  sonlari quyidagi ikkita shartni qanoatlantirsin:

- 1)  $[a:b:c] \in \mathbb{P}_{\mathbb{C}}^2 \setminus D$ , bu yerda

$$D = \{[1:0:0], [0:1:0], [0:0:1]\} \cup \{[a:b:c] \mid a^3 = b^3 = c^3 = 1\}.$$

- 2)  $abc \neq 0$  va  $(3abc)^3 \neq (a^3 + b^3 + c^3)^3$ .

Uch o'lchamli Sklyanin algebra  $S(a, b, c)$  ni 1-darajali hosil qiluvchilari  $x, y, z$  va munosabatlari

$$ax^2 + byz + czy = 0, \quad ay^2 + bzx + cxz = 0, \quad az^2 + bxy + cyx = 0.$$

bo'lgan graduirlangan  $\mathbb{C}$ -algebra kabi aniqlash mumkin.

To'rt o'lchamli Sklyanin algebra  $S(\alpha, \beta, \gamma)$  1-darajali hosil qiluvchilari  $x_0, x_1, x_2, x_3$  lar bo'lgan graduirlangan  $\mathbb{C}$ -algebra bo'lib, ular quyidagi munosabatlarni qanoatlantiradi.

$$\begin{aligned} x_0x_1 - x_1x_0 - \alpha(x_2x_3 + x_3x_2) &= 0, & x_0x_1 + x_1x_0 - (x_2x_3 - x_3x_2) &= 0, \\ x_0x_2 - x_2x_0 - \beta(x_3x_1 + x_1x_3) &= 0, & x_0x_2 + x_2x_0 - (x_3x_1 - x_1x_3) &= 0, \\ x_0x_3 - x_3x_0 - \gamma(x_1x_2 + x_2x_1) &= 0, & x_0x_3 + x_3x_0 - (x_1x_2 - x_2x_1) &= 0. \end{aligned}$$

bu yerda  $\alpha, \beta$  va  $\gamma$  lar  $\alpha + \beta + \gamma + \alpha\beta\gamma = 0$  ni qanoatlantiruvchi kompleks sonlar.

**6-teorema.** Uch va to'rt o'lchamli Sklyanin algebralari  $S(a, b, c)$  va  $S(\alpha, \beta, \gamma)$  Koshul Kalabi-Yau algebrasi bo'ladi.

Koso ko'phadlar halqasi  $A_1 := \mathbb{C}_{q_i}[x_0, x_1, x_2, x_3]$  graduirlangan  $\mathbb{C}$ -algebra bo'lib,  $x_0, x_1, x_2, x_3$  lar orqali hosil qilingan va quyidagi munosabatlarni qanoatlantiradi.

$$x_i x_{i+1} = \left(\frac{q_{i+3}}{q_{i+2}}\right)^{(-1)^i} x_{i+1} x_i, \quad x_i x_{i+2} = \left(\frac{q_{i+1}}{q_{i+3}}\right)^{(-1)^i} x_{i+2} x_i$$

bu yerda  $q_0, \dots, q_3 \in \mathbb{C}^*$  bo'lib,  $\prod_{i=0}^3 q_i = 1$  shartni qanoatlantiradi va indekslar 4 modul bo'yicha olinadi.

**7-teorema.**  $A_1$  algebra Koshul Kalabi-Yau algebrasi bo'ladi.

Uch o'lchamli Sklyanin algebrasining markaziy kengaytmasi  $B$  hosil qiluvchilari  $x_0, x_1, x_2, x_3$  lar bo'lib, quyidagi munosabatlarni qanoatlantiradi.

$$\begin{aligned} [x_0, x_1] &= 0, & [x_2, x_1] &= \lambda(x_2x_1 + x_1x_2) - \nu x_3^2 - \sum_{j=1}^3 b_{1j} x_j x_0, \\ [x_0, x_2] &= 0, & [x_3, x_2] &= \lambda(x_3x_2 + x_2x_3) - \nu x_1^2 - \sum_{j=1}^3 b_{2j} x_j x_0, \\ [x_0, x_3] &= 0, & [x_1, x_3] &= \lambda(x_1x_3 + x_3x_1) - \nu x_2^2 - \sum_{j=1}^3 b_{3j} x_j x_0. \end{aligned}$$

bu yerda  $\lambda, \nu \in \mathbb{C}$  - o'zgarmas sonlari va  $b = (b_{ij}) \in \mathbb{C}^{3 \times 3}$  - simmetrik matritsa.

**8-teorema.**  $B$  algebra Koshul Kalabi-Yau algebra bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “**Elliptik algebraarning Kalabi-Yau xossasi**” deb nomlangan uchinchi bobida, elliptik zeta funksiyalar va elliptik algebralarning tadqiq qilingan. Shuningdek, to‘rt o‘lchamli Sklyanin va elliptik algebraarning izomorf ekanligi keltirilgan. Bundan tashqari, to‘rt va besh o‘lchamli elliptik algebraarning Kalabi-Yau xossasiga ega ekanligi isbotlangan.

Faraz qilaylik,  $\Lambda \neq 1$  va  $\eta \in \mathbb{C}$  orqali hosil qilingan butun panjara bo‘lsin, bu yerda  $\text{Im } \eta > 0$  va  $\mathcal{E} := \mathbb{C} / \Lambda$  unga mos bo‘lgan elliptik egri chiziq bo‘lsin. Feigen va Odesskii maqolasida  $\Theta_n(\Lambda)$  orqali bir o‘zgaruvchili kvazi-preoidiklik shartlarini qanoatlantiruvchi butun funksiyalar fazosini belgilashgan.

$$f(z+1) = f(z), \quad f(z+\eta) = -e^{-2\pi iz} f(z).$$

$\Theta_n(\Lambda)$  dagi funksiyalar  $\Lambda$  panjaraga mos bo‘lgan  $n$ -tartibli zeta funksiyalar deb ataladi. Tekshirish osonki,

$$\theta(z) = \sum_{n \in \mathbb{Z}} (-1)^n e^{2\pi i \left( nz + \frac{n(n-1)}{2} \eta \right)}$$

funksiya  $\Theta_1(\Lambda)$  fazoning bazisi bo‘ladi.

$\alpha \in \mathbb{Z} / n\mathbb{Z}$  uchun

$$\theta_\alpha(z) := e^{2\pi i(\alpha z + [\alpha])} \prod_{m=0}^{n-1} \theta\left(z + \frac{m}{n} + \frac{\alpha}{n} \eta\right), \quad [\alpha] := \frac{\alpha(\alpha - n)}{2n} \eta + \frac{\alpha}{2n}.$$

funksiyani aniqlaymiz. U holda  $\{\theta_0, \theta_1, \dots, \theta_{n-1}\}$  lar  $\Theta_n(\Lambda)$  fazoning bazisi bo‘ladi.  $n = 4$  bo‘lsin.

**1-xossa.** Barcha  $\tau \in \mathbb{C} - \frac{1}{4}\Lambda$  uchun to‘rtinchi tartibli elliptik zeta funksiyalar quyidagi ayniyatni qanoatlantiradi.

$$\frac{\theta_0^2(\tau) + \theta_2^2(\tau)}{\theta_1(\tau)\theta_3(\tau)} = \frac{\theta_1^2(\tau) + \theta_3^2(\tau)}{\theta_0(\tau)\theta_2(\tau)}.$$

Beshinchi tartibli elliptik zeta funksiyalar quyidagi kabi aniqlanadi.

$$\begin{aligned} \theta_0(z) &= \theta(z) \theta\left(z + \frac{1}{5}\right) \theta\left(z + \frac{2}{5}\right) \theta\left(z + \frac{3}{5}\right) \theta\left(z + \frac{4}{5}\right), \\ \theta_1(z) &= \theta\left(z + \frac{1}{5}\eta\right) \theta\left(z + \frac{1}{5} + \frac{1}{5}\eta\right) \cdots \theta\left(z + \frac{4}{5} + \frac{1}{5}\eta\right) e^{2\pi i \left(z + \frac{1}{10} - \frac{2}{5}\eta\right)}, \\ \theta_2(z) &= \theta\left(z + \frac{2}{5}\eta\right) \theta\left(z + \frac{1}{5} + \frac{2}{5}\eta\right) \cdots \theta\left(z + \frac{4}{5} + \frac{1}{5}\eta\right) e^{2\pi i \left(2z + \frac{1}{5} - \frac{3}{5}\eta\right)}, \\ \theta_3(z) &= \theta\left(z + \frac{3}{5}\eta\right) \theta\left(z + \frac{1}{5} + \frac{3}{5}\eta\right) \cdots \theta\left(z + \frac{4}{5} + \frac{3}{5}\eta\right) e^{2\pi i \left(3z + \frac{3}{10} - \frac{3}{5}\eta\right)}, \\ \theta_4(z) &= \theta\left(z + \frac{4}{5}\eta\right) \theta\left(z + \frac{1}{5} + \frac{4}{5}\eta\right) \cdots \theta\left(z + \frac{4}{5} + \frac{4}{5}\eta\right) e^{2\pi i \left(4z + \frac{2}{5} - \frac{2}{5}\eta\right)}. \end{aligned}$$

**2-xossa.** Barcha  $\tau \in \mathbb{C} - \frac{1}{5}\Lambda$  lar uchun yuqoridagi beshinchi tartibli elliptik zeta funksiyalar quyidagi o'nta ayniyatni qanoatlantiradi.

$$\begin{aligned}
m_1 &= \theta_0^2 \theta_1^3 \theta_3 + \theta_0 \theta_1 \theta_2^2 \theta_3^2 - \theta_1^3 \theta_2^2 \theta_4 - \theta_0 \theta_3^4 \theta_4 - \theta_0^2 \theta_1 \theta_2 \theta_4^2 + \theta_2 \theta_3 \theta_4^4 = 0, \\
m_2 &= -\theta_0^2 \theta_1^2 \theta_2 \theta_3 - \theta_0 \theta_2^3 \theta_3^2 + \theta_1^2 \theta_2^3 \theta_4 + \theta_0^4 \theta_3 \theta_4 + \theta_1 \theta_2 \theta_3^2 \theta_4^2 - \theta_0 \theta_1 \theta_4^4 = 0, \\
m_3 &= \theta_0^4 \theta_1 \theta_2 - \theta_0 \theta_2^2 \theta_3^3 - \theta_0 \theta_1^4 \theta_4 + \theta_1^2 \theta_2^2 \theta_3 \theta_4 - \theta_0^2 \theta_2 \theta_3 \theta_4^2 + \theta_1 \theta_3^3 \theta_4^2 = 0, \\
m_4 &= \theta_0 \theta_1 \theta_2^4 - \theta_1^4 \theta_2 \theta_3 + \theta_0^2 \theta_1^2 \theta_3 \theta_4 - \theta_0 \theta_2^2 \theta_3^2 \theta_4 - \theta_0^2 \theta_2 \theta_4^3 + \theta_1 \theta_3^2 \theta_4^3 = 0, \\
m_5 &= \theta_0^3 \theta_1^2 \theta_3 - \theta_1 \theta_2 \theta_3^4 - \theta_0 \theta_1^2 \theta_2^2 \theta_4 + \theta_2^4 \theta_3 \theta_4 - \theta_0^3 \theta_2 \theta_4^2 + \theta_0 \theta_1 \theta_3^2 \theta_4^2 = 0, \\
k_1 &= \theta_0^2 \theta_1 \theta_2^3 - \theta_0 \theta_1^4 \theta_3 - \theta_0^2 \theta_2 \theta_3^2 \theta_4 + \theta_1 \theta_3^4 \theta_4 + \theta_0 \theta_1^2 \theta_2 \theta_4^2 - \theta_2^3 \theta_3 \theta_4^2 = 0, \\
k_2 &= \theta_0^2 \theta_1 \theta_2^2 \theta_3 + \theta_1^2 \theta_2 \theta_3^3 - \theta_1 \theta_2^4 \theta_4 - \theta_0^2 \theta_3^3 \theta_4 - \theta_0 \theta_1^2 \theta_3 \theta_4^2 + \theta_0 \theta_2 \theta_4^4 = 0, \\
k_3 &= \theta_0^4 \theta_1 \theta_3 - \theta_0 \theta_2 \theta_3^4 - \theta_0^2 \theta_1 \theta_2^2 \theta_4 + \theta_1^2 \theta_2 \theta_3^2 \theta_4 - \theta_0 \theta_1^2 \theta_4^3 + \theta_2^2 \theta_3 \theta_4^3 = 0, \\
k_4 &= -\theta_0^3 \theta_1 \theta_2^2 - \theta_0 \theta_1^2 \theta_2 \theta_3^2 + \theta_1^4 \theta_2 \theta_4 + \theta_0^3 \theta_3^2 \theta_4 + \theta_0 \theta_2^2 \theta_3 \theta_4^2 - \theta_1 \theta_3 \theta_4^4 = 0, \\
k_5 &= -\theta_0 \theta_2^4 \theta_3 + \theta_1^3 \theta_2 \theta_3^2 + \theta_0^4 \theta_2 \theta_4 - \theta_0^2 \theta_1 \theta_3^2 \theta_4 - \theta_0 \theta_1^3 \theta_4^2 + \theta_1 \theta_2^2 \theta_3 \theta_4^2 = 0.
\end{aligned}$$

Barcha  $\tau \in \mathbb{C} - \frac{1}{n}\Lambda$  lar va  $1 \leq k \leq n$  bo'ladigan o'zaro tub sonlar juftligi uchun Feigin va Odesski  $Q_{n,k}(\mathcal{E}, \tau)$  graduirlangan algebra oilasini kiritgan.

**9-ta'rif.**  $\mathbb{C}\langle x_0, x_1, \dots, x_{n-1} \rangle$  erkin algebra ning quyidagi munosabatlar bo'yicha faktor algebrasiga *elliptik algebra* deyiladi va  $Q_{n,k}(\mathcal{E}, \tau)$  kabi yoziladi.

$$r_{ij} = \sum_{r \in \mathbb{Z}_n} \frac{\theta_{j-i+r(k-1)}(0)}{\theta_{kr}(\tau) \theta_{j-i-r}(-\tau)} x_{j-r} x_{i+r}, (i, j) \in \mathbb{Z}^2.$$

$n=4, k=1$  deylik, to'rt o'lchamli elliptik algebra  $Q_{4,1}(\mathcal{E}, \tau)$   $\mathbb{C}\langle x_0, x_1, x_2, x_3 \rangle$  erkin algebra ning quyidagi munosabatlar bo'yicha olingan faktor algebrasi  $Q(a, b, c, d)$  ga izomorf

$$\begin{aligned}
r_1 &= a^2 x_1 x_0 - a b x_0 x_1 + a c x_2 x_3 + b c x_3 x_2, & r_2 &= a^2 x_3 x_2 - a b x_2 x_3 + a c x_0 x_1 + b c x_1 x_0, \\
r_3 &= d^2 (x_2 x_0 - x_0 x_2) + i b c (x_1^2 - x_3^2), & r_4 &= d^2 (x_1 x_3 - x_3 x_1) + i b c (x_0^2 - x_2^2), \\
r_5 &= a^2 x_0 x_3 - a b x_3 x_0 + a c x_1 x_2 + b c x_2 x_1, & r_6 &= a^2 x_2 x_1 - a b x_1 x_2 + a c x_3 x_0 + b c x_0 x_3.
\end{aligned}$$

bu yerda  $a, b, c, d$  lar kompleks sonlar bo'lib, 4-tartibli zeta funksiyalar orqali quyidagicha aniqlanadi.

$$a := \frac{i}{\theta_0(\tau) \theta_3(\tau)}, b := \frac{1}{\theta_0(\tau) \theta_1(\tau)}, c := \frac{1}{\theta_2(\tau) \theta_3(\tau)}, d := \frac{1}{\theta_0(\tau) \theta_2(\tau)}.$$

**3-xossa.** Yuqoridagi  $a, b, c, d \in \mathbb{C} - \{0\}$  sonlari quyidagi ayniyatni qanoatlantiradi.

$$a^2 b^3 c - b^3 c^3 - a^2 d^4 + b^2 d^4 = 0.$$

**9-teorema.** Faraz qilaylik,  $a, b, c, d \in \mathbb{C} - \{0\}$  sonlari yuqoridagi ayniyatni qanoatlantirsin va

$$\alpha = \left( \frac{a^2 - ab + ac + bc}{a^2 + ab - ac + bc} \right)^2, \quad \beta = -\frac{b^2 c^2}{d^4}, \quad \gamma = -\left( \frac{a^2 - ab - ac - bc}{a^2 + ab + ac - bc} \right)^2.$$

bo'lsin. U holda  $\alpha, \beta, \gamma$  lar  $\alpha + \beta + \gamma + \alpha\beta\gamma = 0$  ayniyatni qanoatlantiradi va  $Q(a, b, c, d)$  va  $S(\alpha, \beta, \gamma)$  algebrai izomorf bo'ladi.

**10-teorema.**  $Q(a, b, c, d)$  algebra  $\mathcal{D}(\omega, 2)$  hosilaviy-faktor algebraga izomorf, bu yerda  $\omega \in \mathbb{C}\langle x_0, x_1, x_2, x_3 \rangle$  superpotential

$$\omega := k_1(r_1 r_2 + r_2 r_1) + k_2(r_3 r_4 + r_4 r_3) + k_3(r_5 r_6 + r_6 r_5)$$

kabi aniqlanadi va  $(k_1, k_2, k_3) \neq (0, 0, 0)$  bo'lib quyidagicha aniqlanadi.

$$k_1 = -k_3 = ib(b-c)(b+c)(a^2 bc + d^4), \quad k_2 = -ia(b-c)(b+c)(a^2 - bc)(a^2 + bc).$$

Xulosa qilamizki, ushbu algebra Koshul Kalabi-Yau algebra bo'ladi.

**10-ta'rif.** Besh o'lchamli elliptik algebra  $Q_{5,1}(\mathcal{E}, \tau)$  graduirlangan  $\mathbb{C}$ -algebra bo'lib, 1-darajali hosil qiluvchilari  $x_0, x_1, x_2, x_3, x_4$  lar quyidagi munosabatlarni qanoatlantiradi.

$$r_j = f_0 x_j^2 + f_1 x_{j-1} x_{j+1} + f_2 x_{j-2} x_{j+2} + f_3 x_{j-3} x_{j+3} + f_4 x_{j-4} x_{j+4},$$

$$s_j = \frac{f_2 f_3}{f_0} x_j^2 + \frac{f_3 f_4}{f_1} x_{j-1} x_{j+1} + \frac{f_0 f_4}{f_2} x_{j-2} x_{j+2} + \frac{f_0 f_1}{f_3} x_{j-3} x_{j+3} + \frac{f_1 f_2}{f_4} x_{j-4} x_{j+4}.$$

bu yerda  $f_j = \frac{\omega^j}{\theta_{j+1}(\tau)\theta_{j-1}(\tau)}$ ,  $\omega = e^{\frac{2\pi i}{5}}$  va  $j \in \mathbb{Z}_5$ .

$f_4 = f_1, f_3 = f_2$  holni qaraylik bu esa  $\theta_3(\tau) = \omega^3 \theta_2(\tau)$ ,  $\theta_4(\tau) = \omega^4 \theta_1(\tau)$  ekanligini anglatadi. U holda biz quyidagi  $A_5$  algebrani hosil qilamiz.

**11-ta'rif.**  $A_5$  algebra 1-darajali hosil qiluvchilari  $x_0, x_1, x_2, x_3, x_4$  va munosabatlari

$$\begin{aligned} R_1 &= ax_0^2 + b(x_2 x_3 + x_3 x_2), & S_1 &= cx_0^2 - b(x_1 x_4 + x_4 x_1), \\ R_2 &= ax_1^2 + b(x_3 x_4 + x_4 x_3), & S_2 &= cx_1^2 - b(x_2 x_0 + x_0 x_2), \\ R_3 &= ax_2^2 + b(x_4 x_0 + x_0 x_4), & S_3 &= cx_2^2 - b(x_3 x_1 + x_1 x_3), \\ R_4 &= ax_3^2 + b(x_0 x_1 + x_1 x_0), & S_4 &= cx_3^2 - b(x_4 x_2 + x_2 x_4), \\ R_5 &= ax_4^2 + b(x_1 x_2 + x_2 x_1), & S_5 &= cx_4^2 - b(x_0 x_3 + x_3 x_0). \end{aligned}$$

kabi bo'lgan graduirlangan  $\mathbb{C}$ -algebradir, bu yerda  $a = f_2^2(f_0^2 - f_1 f_2)$ ,  $b = f_0(f_2^3 - f_0 f_1^2)$  va  $c = f_0^3 f_1 - f_2^4$ .

**11-teorema.**  $A_5$  algebra  $\mathcal{D}(\Phi, 3)$  algebraga izomorf, bu yerda superpotensial  $\Phi \in \mathbb{C}\langle x_0, x_1, x_2, x_3, x_4 \rangle$  quyidagicha aniqlanadi.  $V = \mathbb{C}x_0 \oplus \mathbb{C}x_1 \oplus \mathbb{C}x_2 \oplus \mathbb{C}x_3 \oplus \mathbb{C}x_4$  fazo uchun  $Q_1, Q_2, Q_3, Q_4, Q_5 \in V^{\otimes 4}$  larni

$$\begin{aligned}
Q_i = & \frac{a^3b + b^2c^2 + ac^3}{b} (R_i^2 - R_{i+3}S_{i+2} - S_{i+2}R_{i+3} - R_{i+2}S_{i+3} - S_{i+3}R_{i+2}) \\
& + \frac{a^2b^2 + a^3c - bc^3}{b} (S_i^2 - R_{i+1}S_{i+4} - S_{i+4}R_{i+1} - S_{i+1}R_{i+4} - R_{i+4}S_{i+1}) \\
& - \frac{b^4 + 3ab^2c + a^2c^2}{b} (R_iS_i + S_iR_i - S_{i+2}S_{i+3} - S_{i+3}S_{i+2} - R_{i+1}R_{i+4} - R_{i+4}R_{i+1}) \\
& + \frac{ab^3 + 2a^2bc + c^4}{b} (R_{i+2}R_{i+3} + R_{i+3}R_{i+2}) + \frac{a^4 - b^3c - 2abc^2}{b} (S_{i+4}S_{i+1} + S_{i+1}S_{i+4})
\end{aligned}$$

kabi aniqlaymiz, bu yerda indekslar  $\{i, i+1, i+2, i+3, i+4\} \in \{1, 2, 3, 4, 5\}$  5 modul bo'yicha olinadi. U holda quyidagi tenzor ushbu algebra uchun superpotensial bo'ladi:

$$\Phi := x_0Q_1 + x_1Q_2 + x_2Q_3 + x_3Q_4 + x_4Q_5$$

Xususan,  $A_5$  algebra Kalabi-Yau xossasiga ega.

### XULOSA

Dissertatsiya elliptik algebralarining Kalabi-Yau xossalarini o'rganishga bag'ishlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Koshul algebralarining Kalabi-Yau xossasini qanoatlantirish kriteriyasi kvant Yang-Bakster tenglamasining yechimlari orqali aniqlangan;
2. Uch va to'rt o'lchamli Sklyanin algebralarining Kalabi-Yau xossasining boshqacha isboti berilgan;
3. Bir qancha Koshul algebralarining Kalabi-Yau xossasiga ega ekanligi kvant Yang-Bakster tenglamasining yechimlarini topish orqali isbotlangan;
4. To'rtinchi tartibli elliptik zeta funksiyalar orasidagi ayniyat topilgan. Bundan tashqari, beshinchi tartibli elliptik zeta funksiyalar o'nta ayniyatni qanoatlantirishi isbotlangan;
5. To'rt o'lchamli Sklyanin va elliptik algebralar orasida izomorfizm oshkor holda qurilgan;
6. To'rt o'lchamli elliptik algebralari uchun superpotensial aniqlangan;
7.  $\tau \in \mathcal{E}$  ning ba'zi qiymatlari uchun besh o'lchamli elliptik algebralarning superpotensialni aniqlanib, bu algebralarning Calabi-Yau xossasiga ega ekanligini ko'rsatilgan.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES  
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 INSTITUTE OF MATHEMATICS NAMED  
AFTER V.I. ROMANOVSKIY**

---

**INSTITUTE OF MATHEMATICS**

**MIZOMOV INOMJON ERKIN O'G'LI**

**ON CALABI-YAU PROPERTIES OF ELLIPTIC ALGEBRAS**

**01.01.06-Algebra**

**ABSTRACT OF THESIS OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)  
ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES**

**TASHKENT-2025**

**The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the of Ministers of Higher education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2023.4.PhD/FM960.**

Thesis has been prepared at Institute of Mathematics.

The abstract of the thesis is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website <http://kengash.mathinst.uz> and in the website of “ZiyoNet” Information and educational portal <http://www.ziyo.net>.

**Scientific supervisor:** **Eshmatov Farkhod Khasanovich**  
doctor of physical and mathematical sciences, senior researcher

**Official opponents:** **Omirov Bakhrom Abdazovich**  
doctor of physical and mathematical sciences, Professor

**Jumaniyozov Doston Erkaboy o‘g‘li**  
doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences

**Leading organization:** **Andijan State University**

Defense will take place « 25 » November 2025 at 17:00 at the meeting of Scientific Council number DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovskiy. (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871) 207-91-40, e-mail: [uzbmath@umail.uz](mailto:uzbmath@umail.uz), Website: [www.mathinst.uz](http://www.mathinst.uz))

Dissertation is possible to review in Information-resource center at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovskiy (is registered №214). (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871)-207-91-40).

Abstract of the thesis sent out on « 10 » November 2025 year  
(Mailing report № 2 on « 10 » November 2025 year)

**U.A. Rozikov**  
Deputy Chairman of Scientific Council  
on award of scientific degrees,  
D.F.-M.S., Academician

**J.K. Adashev**  
Scientific secretary of Scientific Council  
on award of scientific degrees,  
D.F.-M.S., Senior researcher

**B.A. Omirov**  
Chairman of Scientific seminar under  
Scientific Council on award of scientific degrees,  
D.F.-M.S., Professor

## INTRODUCTION

